



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

PhD, dots. **Gofurov Doston**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0003-1759-3359

d.gofurov@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqola raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekiston kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorining rivojlanish imkoniyatlari, muammolari va istiqbollari kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda raqamli transformatsiyaning kichik biznesga ta'sir mexanizmlari, hozirgi holat tahlili, xorijiy tajriba va eng yaxshi amaliyotlar o'rganilgan. Raqamli iqtisodiyot kichik biznes uchun bozor chegaralarini kengaytirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish va yangi biznes modellarini joriy etish kabi ulkan imkoniyatlar yaratmoqda. O'zbekistonda raqamli transformatsiya jadal sur'atlarda rivojlanayotgan bo'lsa-da, kichik biznes sektorida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichlaridan orqada qolmoqda. Maqolada kichik biznes raqamlashuvini tezlashtirish uchun raqamli savodxonlik dasturlarini ishlab chiqish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish, infratuzilmani yaxshilash bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, raqamli transformatsiya, elektron tijorat, raqamli texnologiyalar, kichik va o'rta korxonalar, raqamli platformalar, onlayn savdo, raqamli to'lov tizimlari, bulutli texnologiyalar, raqamli marketing, startap ekotizimi, raqamli savodxonlik.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

PhD, доц. **Гофуров Достон**

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. Данная статья посвящена комплексному анализу возможностей, проблем и перспектив развития сектора малого бизнеса и частного предпринимательства Узбекистана в условиях цифровой экономики. В исследовании изучены механизмы влияния цифровой трансформации на малый бизнес, анализ текущей ситуации, зарубежный опыт и лучшие практики. Цифровая экономика создает огромные возможности для малого бизнеса: расширение границ рынка, снижение операционных расходов и внедрение новых бизнес-моделей. Хотя цифровая трансформация в Узбекистане развивается быстрыми темпами, уровень использования цифровых технологий в секторе малого бизнеса отстает от показателей развитых стран. В статье представлены предложения по разработке программ цифровой грамотности, созданию механизмов финансовой поддержки и улучшению инфраструктуры для ускорения цифровизации малого бизнеса.

Ключевые слова: цифровая экономика, малый бизнес, частное предпринимательство, цифровая трансформация, электронная коммерция, цифровые технологии, малые и средние предприятия, цифровые платформы, онлайн-торговля, цифровые платежные системы, облачные технологии, цифровой маркетинг, стартап-экосистема, цифровая грамотность.

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN THE CONTEXT OF THE DIGITAL ECONOMY

PhD, assoc. prof. **Gofurov Doston**
Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article is devoted to a comprehensive analysis of the possibilities, problems, and prospects for the development of the small business and private entrepreneurship sector of Uzbekistan in the context of the digital economy. The study examines the mechanisms of the impact of digital transformation on small businesses, an analysis of the current situation, foreign experience, and best practices. The digital economy creates enormous opportunities for small businesses: expanding market boundaries, reducing operating costs, and introducing new business models. Although digital transformation is developing rapidly in Uzbekistan, the level of use of digital technologies in the small business sector lags behind the indicators of developed countries. The article presents proposals for developing digital literacy programs, creating financial support mechanisms, and improving infrastructure to accelerate the digitalization of small businesses.*

Keywords: *digital economy, small business, private entrepreneurship, digital transformation, e-commerce, digital technologies, small and medium-sized enterprises, digital platforms, online trading, digital payment systems, cloud technologies, digital marketing, startup ecosystem, digital literacy.*

Kirish.

XXI asrning ikkinchi o'n yilligi jahon iqtisodiyotida tubdan o'zgarishlar davrini boshlab berdi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va keng qamrovli joriy etilishi iqtisodiy munosabatlarning barcha sohalarini qamrab oldi. Bu jarayon, birinchi navbatda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektoriga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Raqamli iqtisodiyot - bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli platformalar asosida shakllangan iqtisodiy faoliyat turidir. Uning rivojlanishi kichik biznes korxonalariga an'anaviy iqtisodiy to'siqlarni bartaraf etish va yangi bozor imkoniyatlarini egallash yo'llarini ochib bermoqda. Jahon Bank ma'lumotlariga ko'ra, raqamli texnologiyalarni faol qo'llaydigan kichik korxonalar mahsuldorlikni 15-25% gacha oshirmoqda (World bank, 2023).

Bugungi kunda kichik biznes jahon iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Xalqaro mehnat tashkiloti ILO (2023) ma'lumotlariga ko'ra, dunyodagi barcha korxonalarning 90% dan ortig'i kichik va o'rta biznes korxonalari bo'lib, ular umumiy bandlikning 60-70% ini ta'minlaydi. Raqamli transformatsiya sharoitida bu ko'rsatkichlar yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy rivojlanishning strategik yo'nalishi sifatida belgilangan. 2024-yil yakunlariga ko'ra, respublikada 380 ming dan ortiq kichik biznes sub'ektlari faoliyat yuritmoqda, ular mamlakatning yalpi ichki mahsulotiga 56,9% hissa qo'shmoqda. Davlat tomonidan qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston-2030" davlat dasturi kichik biznesning raqamli transformatsiyasini rag'batlantirishga qaratilgan (Farmon, 2020).

Zamonaviy global iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar kichik biznes rivojlanishining asosiy omillaridir. McKinseyning (2023) tahlillariga ko'ra, to'liq raqamlashtirilgan kichik biznes korxonalari an'anaviy usullarda faoliyat yurituvchilarga nisbatan 2,5 barobar tez o'sish sur'atlarini ko'rsatmoqda. Bu statistika raqamli transformatsiyaning kichik tadbirkorlik sohasidagi muhim ahamiyatini tasdiqlaydi.

COVID-19 pandemiyasi raqamli texnologiyalarning ahamiyatini yanada oshirdi. Jahon savdo tashkiloti (WTO) hisobotlariga ko'ra, pandemiya davrida elektron tijorat hajmi 2019-yilga nisbatan 70% ga o'sga, bu esa kichik biznes korxonalarining raqamli platformalarga

o'tishini tezlashtirdi. Ushbu jarayon hozirgi kunda ham davom etmoqda va kelajakda yanada jadallashishi kutilmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi kichik biznes uchun bir necha asosiy imkoniyatlar yaratmoqda. Birinchidan, global bozorlarga kirish imkoniyati, internet orqali kichik korxona dunyoning istalgan nuqtasidan mijozlarga yetib borishi mumkin. Ikkinchidan, operatsion xarajatlarning sezilarli kamayishi bulutli texnologiyalar, avtomatlashtirish va raqamli vositalar yordamida kichik korxonalar katta IT infrastrukturasi samarali ishlatishga imkon beradi.

Uchinchidan, mijozlar bilan bevosita aloqa o'rnatish va ularning ehtiyojlarini aniqroq bilish imkoniyati paydo bo'ldi. Raqamli marketing vositalari kichik tadbirkorlarga nishonli auditoriyaga yo'naltirilgan reklama kompaniyalarini minimal xarajalar bilan olib borish imkoniyatini bermoqda. To'rtinchidan, innovatsion mahsulot va xizmatlar yaratish uchun yangi texnologik imkoniyatlar ochildi. Sun'iy intellekt, blockchain, Internet of Things (IoT) kabi zamonaviy texnologiyalar kichik biznes uchun ham mavjud bo'ldi.

Biroq, raqamli transformatsiya jarayoni bir qator qiyinchilik va cheklolarni ham keltirib chiqarmoqda. Raqamli bo'linish muammosi, kiberxavfsizlik risklari, malakali kadrlar yetishmasligi va texnologik o'zgarishlarga moslashish qiyinchiliklari kichik biznes rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar hisoblanadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning jadal o'zgarishi kichik tadbirkorlardan doimiy o'rganish va yangilanishni talab qilmoqda. Bu esa qo'shimcha vaqt va moliyaviy resurslarga ehtiyoj tug'dirmoqda. Gartner tadqiqot kompaniyasi ma'lumotlariga ko'ra, kichik biznes korxonalarining 60% i raqamli transformatsiya jarayonida moliyaviy va texnologik qiyinchiliklarga duch kelmoqda (Abdullayev, 2021).

Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesning kelajak istiqbollari bir necha omillarga bog'liq. Birinchidan, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash siyosati va tartibga solish mexanizmlari. Ikkinchidan, raqamli infrastrukturaning rivojlanganlik darajasi. Uchinchidan, ta'lim tizimida raqamli ko'nikmalarga e'tibor berish darajasi.

Jahon iqtisodiy forumi (WEF) ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilga kelib global iqtisodiyotning 50% i raqamli texnologiyalar asosida shakllanishi kutilmoqda (Rahmonova, 2021). Bu esa kichik biznes korxonalari uchun ham yangi imkoniyatlar, ham yangi chaqiriqlar yaratmoqda. Raqamli platformalar orqali ishlash, elektron tijorat, fintech yechimlari va sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash zamonaviy kichik tadbirkor uchun zaruriyatga aylanmoqda.

O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli transformatsiya jarayoni yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatning iqtisodiy diversifikatsiya qilish va eksportni oshirish maqsadlariga erishishda kichik biznesning raqamli rivojlanishi hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin. Shu bilan birga, raqamli bo'linish muammosi va texnologik imkoniyatlarning teng taqsimlanmasligi kichik shaharlardagi va qishloq hududlaridagi tadbirkorlarga qo'shimcha qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda raqamli iqtisodiyot va kichik biznes o'rtasidagi o'zaro ta'sir masalalariga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Biroq, bu soha bo'yicha mahalliy sharoitlarda olib borilgan chuqur tadqiqotlar hali ham yetarli emas. Xususan, O'zbekiston kabi o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda kichik biznesning raqamli transformatsiyasi bo'yicha kompleks tahlillar kamdan-kam uchraydi.

Adabiyotlar sharhi.

Brynjolfsson va McAfee (2014) "The Second Machine Age" asarida raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotga ta'siri chuqur tahlil qilingan. Mualliflar raqamli inqilobning kichik biznes rivojlanishiga yordam beruvchi omillarni ko'rsatib, xususan, texnologiyalar kichik korxonalarga katta kompaniyalar bilan teng sharoitda raqobat qilish imkonini berishini ta'kidlagan. Ular raqamli platformalarini demokratlashtirish va kirish to'siqlarini kamaytirish imkoniyatlarini alohida ajratib ko'rsatgan.

Parker, Alstyne va Choudary (2016) "Platform Revolution" kitobida raqamli platformalarning kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratish mexanizmlari batafsil ko'rib

chiqilgan. Kitobda platform iqtisodiyotining paydo bo'lishi, tarmoq effektlari va kichik tadbirkorlar uchun global bozorlarga kirish imkoniyatlari tahlil etilgan. Mualliflar Airbnb, Uber, Amazon kabi platformalarning kichik biznes rivojlanishiga ta'sirini amaliy misollar bilan ko'rsatgan.

Абдрахманова ва Гохберг (2020) "Цифровая экономика: 2021" monografiyasida Rossiya va MDH mamlakatlarida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari chuqur tahlil qilingan. Mualliflar raqamli texnologiyalarning kichik biznes samaradorligiga ta'sirini miqdoriy ko'rsatkichlar bilan asoslab bergan. Kitobda xususan, elektron tijorat rivojlanishi, raqamli to'lov tizimlari va bulutli texnologiyalarning kichik korxonalar faoliyatiga ta'siri ko'rsatilgan.

Петров ва Иванов (2019) "Малый бизнес в условиях цифровизации" maqolasida raqamlashtirish sharoitida kichik biznesning muammolari va imkoniyatlari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotchilar Rossiya kichik biznes sektorining raqamli transformatsiya jarayonidagi asosiy qiyinchiklarni moliyaviy cheklovlar, kadr yetishmasligi, texnik infratuzilma sustligini aniqlagan va ularni yechish yo'llarini taklif qilgan.

Golubenskaya (2020) "Влияние цифровых технологий на развитие предпринимательства" tadqiqotida raqamli texnologiyalarning tadbirkorlikka ta'siri empirik ma'lumotlar asosida tahlil etilgan. Muallif 500 dan ortiq kichik korxona faoliyatini tahlil qilib, raqamli texnologiyalardan faol foydalanadigan korxonalarning daromadi o'rtacha 35-40% yuqori ekanligini aniqlagan.

Abdullayev va Jurayev (2021) "O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: imkoniyatlar va muammolar" maqolasida mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari ko'rib chiqilgan. Mualliflar O'zbekiston kichik biznes sektorining raqamlashtirish darajasini baholab, asosiy muammolar va istiqbollarni aniqlagan. Ular xususan, qishloq hududlardagi internet infratuzilmasi sustligi muammosiga e'tibor qaratgan.

Xolmatov (2020) "Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini raqamlashtirish masalalari" tadqiqotida O'zbekistonda kichik biznesni raqamlashtirish jarayonlari chuqur tahlil qilingan. Muallif kichik biznes korxonalarining raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini o'rganib, eng samarali yondashuvlarni aniqlagan. Tadqiqotda xususan, elektron tijorat platformalarining mahalliy kichik biznes rivojlanishiga ta'siri ko'rsatilgan.

Rahmonova (2021) "Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik va o'rta biznesning roli" maqolasida kichik va o'rta biznes sektorining raqamli transformatsiyadagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Muallif O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning raqamlashtirish orqali rivojlanish imkoniyatlarini ko'rib chiqib, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralarining samaradorligini baholagan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqot ishining metodologik asosi dialektik materializmning umumiy tamoyillari, tizimli yondashuv va zamonaviy iqtisodiy tahlil usullariga asoslanadi. Tadqiqotda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Asosiy metodlar: adabiyotlar tahlili va sintezi, statistik tahlil, qiyosiy tahlil, prognozlash usullari ishlatildi. Ma'lumotlar bazasi sifatida Statistika agentligi, Markaziy bank, Jahon banki va OECD hisobotlari, shuningdek mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Raqamli iqtisodiyot kontsepsiyasi zamonaviy iqtisodiy fan va amaliyotning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu tushunchaning paydo bo'lishi va rivojlanishi bir necha bosqichlardan o'tgan bo'lib, har bir bosqichda yangi nazariy yondashuvlar va amaliy talqinlar shakllangan.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotda raqamli iqtisodiyot turli jihatlardan ta'riflanadi. Yevropa Komissiyasining ta'rifiga ko'ra, raqamli iqtisodiyot - bu raqamli texnologiyalar

tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan barcha iqtisodiy faoliyatlar majmuasi. OECD esa uni raqamli ma'lumotlardan foydalanish va tahlil qilishni yangi biznes modellarini yaratish, yangi jarayonlar va mahsulotlarni ishlab chiqish uchun ishlatadigan iqtisodiy faoliyat sifatida belgilaydi.

An'anaviy va raqamli iqtisodiyot o'rtasidagi fundamental farqlar nafaqat texnologik, balki struktural, institusional va madaniy jihatlarni ham qamrab oladi. An'anaviy iqtisodiyotda qiymat yaratishning asosiy manbai moddiy resurslar va mehnat bo'lsa, raqamli iqtisodiyotda ma'lumot, ma'rifat va algoritmlar asosiy o'rin tutadi. Bu o'zgarish kichik biznes uchun ayniqsa muhim, chunki ular katta hajmdagi fizik aktivlarga ega bo'lmasalar ham, intellektual va ma'lumot resurslar orqali katta kompaniyalar bilan raqobatlasha oladilar. Bozorga kirish to'siqlari ham sezilarli darajada o'zgargan. An'anaviy iqtisodiyotda yangi bozorga kirish uchun katta kapital investitsiyalari, litsenziyalar va boshqa qimmat protseduralar talab qilinadi. Raqamli iqtisodiyotda esa API texnologiyalari va platformalar orqali bu to'siqlar sezilarli darajada pasaygan. Masalan, kichik korxona Amazon AWS yoki Google Cloud kabi xizmatlardan foydalanib, minimal xarajatlar bilan global darajada xizmat ko'rsata boshlashi mumkin.

Raqamli transformatsiya jarayoni odatda bir necha bosqichdan iborat. Birinchi bosqich raqamlashtirish bo'lib, analog jarayonlar raqamli formatga o'tkaziladi. Ikkinchi bosqich raqamlash bo'lib, raqamli texnologiyalar yordamida mavjud biznes jarayonlari yaxshilanadi. Uchinchi bosqich to'liq raqamli transformatsiya bo'lib, butun biznes modeli raqamli asosda qayta quriladi. Oxirgi bosqich raqamli innovatsiya bo'lib, bu yerda yangi raqamli mahsulot va xizmatlar yaratiladi.

O'zbekistonda kichik biznes sektorining raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi hali ham rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichlariga nisbatan past bo'lib, bu soha bo'yicha sezilarli imkoniyatlar mavjud. Kichik korxonalar turli xil raqamli yechimlarni qabul qilish jarayonida turlicha muvaffaqiyatlarga erishmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil boshiga kelib mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati yurituvchi sub'ektlar soni 465,300 tani tashkil etdi. Biroq, ularning raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi hali ham o'rtacha darajada qolmoqda.

1-jadval

Kichik biznes korxonalarining raqamli texnologiyalardan foydalanishi (%)

Texnologiya turi	2022	2023	2024	O'sish sur'ati	Xorijiy o'rtacha (%)
Ijtimoiy tarmoqlarda mavjudlik	53,1	59,8	68,3	+28,6%	78,4
Onlayn to'lov qabul qilish	26,9	31,2	34,7	+29,0%	67,8
Elektron hisob-kitob dasturlari	34,5	37,8	41,2	+19,4%	72,3
Bulutli xizmatlardan foydalanish	14,6	17,1	19,8	+35,6%	45,7
E-tijorat platformalarida sotish	18,7	22,4	26,5	+41,7%	52,9
CRM tizimlaridan foydalanish	10,4	11,7	12,3	+18,3%	38,6
Veb-sayt egalligi	23,8	27,1	32,4	+36,1%	71,2
Raqamli marketing	19,2	24,7	29,8	+55,2%	64,3
Mobil ilovalar ishlatish	15,7	19,3	24,1	+53,5%	41,8
Big Data tahlili	3,2	4,1	5,7	+78,1%	23,4

Manba: World Bank, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (2024). "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha statistik to'plam".

Eng keng tarqalgan raqamli faoliyat ijtimoiy tarmoqlarda mavjudlik hisoblanadi. Facebook, Instagram, Telegram va boshqa ijtimoiy platformalar kichik biznes uchun mijozlar bilan bevosita aloqa o'rnatish, mahsulot va xizmatlarni targ'ib qilish hamda brend yaratishning samarali vositasiga aylangan. Kichik tadbirkorlar bu platformalardan nafaqat marketing maqsadlarida, balki mijozlarga maslahat berish, buyurtmalar qabul qilish va post-savdo

xizmatlarini ko'rsatish uchun ham foydalanmoqda. Ayniqsa, pandemiyan davrida ijtimoiy tarmoqlar orqali savdo-sotiq sezilarli o'sish ko'rsatdi.

Onlayn to'lov tizimlarini joriy etish kichik biznes uchun yanada murakkab masala hisoblanadi. Click, Payme, Uzcard va boshqa mahalliy to'lov tizimlari keng tarqalgan bo'lsa-da, kichik korxonalarning sezilarli qismi hali ham naqd pul bilan ishlashni afzal ko'radi. Buning sabablari orasida texnik bilimlarning yetishmasligi, qo'shimcha komissiya to'lovlaridan qo'rqish va an'anaviy biznes yuritish usullariga sodiqlik aytiladi. Biroq, mijozlarning kontaktsiz to'lov usullariga bo'lgan talabi ortib borayotgan sharoitda, bu masala kichik biznes uchun muhim tanlov bo'lib qolmoqda.

Elektron hisob-kitob dasturlaridan foydalanish ham kichik biznes orasida sekin rivojlanmoqda. Ko'pchilik kichik tadbirkorlar hali ham an'anaviy qog'ozli hujjatlar va oddiy Excel jadvallari bilan ishlashni davom ettirmoqda. 1C, QuickBooks, Iman, BuxPro kabi professional hisob-kitob dasturlari foydalanuvchilari soni o'sib borsa-da, bu jarayon sekin ketmoqda. Asosiy to'siqlar orasida dasturlarning narxi, o'rganish murakkabligi va mavjud tizimlarni o'zgartirishga bo'lgan qarshilik aytiladi.

2020-2024-yillar davomida O'zbekiston kichik biznes sektorining raqamli transformatsiya jarayoni sezilarli dinamika ko'rsatdi. Ushbu besh yillik davr COVID-19 pandemiyasi, davlat tomonidan raqamlashtirish dasturlarining faollashuvi va global raqamli tendensiyalarning mahalliy bozorga ta'sirini o'z ichiga oladi (2-jadval).

E-tijorat platformalarida faoliyat yuritish eng yuqori o'sish sur'atini ko'rsatdi - yillik 24,0 foiz. 2020-yilda kichik korxonalarning atigi 11,2 foizi onlayn platformalarda savdo qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu raqam 26,5 foizga etdi. Bu o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi pandemiya davrida paydo bo'lgan onlayn xaridlarning mashhurlik qozonishi bo'ldi.

Raqamli marketing ham yuqori o'sish sur'atiga ega - yillik 24,0 foiz. 2020-yilda 12,6 foizdan 2024-yilda 29,8 foizga o'sish kichik biznesning marketingga yondashuvini o'zgartirishini ko'rsatadi. Google Ads, Facebook Ads, Yandex.Direct kabi platformalarning qulayligi va nisbatan arzon narxlari kichik tadbirkorlarni jalb qildi. Reklamaning samaradorligi, real vaqtda natijalarni kuzatish imkoniyati va moslashuvchanlik raqamli marketing vositalarining asosiy afzalliklari bo'ldi. Ayniqsa, COVID-19 davrida an'anaviy reklama kanallarining samarasiz bo'lib qolishi raqamli marketingga e'tiborni oshirdi.

2-jadval

Kichik biznesda raqamli texnologiyalar qabul qilish sur'ati

Texnologiya	2020 (%)	2021 (%)	2022 (%)	2023 (%)	2024 (%)	CAGR*
Ijtimoiy media	42,1	48,9	53,1	59,8	68,3	12,8%
Onlayn to'lovlar	19,8	23,4	26,9	31,2	34,7	15,1%
E-hisob dasturlari	28,7	31,2	34,5	37,8	41,2	9,5%
Bulutli xizmatlar	8,9	11,3	14,6	17,1	19,8	22,1%
E-tijorat platformalar	11,2	14,8	18,7	22,4	26,5	24,0%
CRM tizimlari	6,8	8,1	10,4	11,7	12,3	16,0%
Veb-saytlar	18,4	21,7	23,8	27,1	32,4	15,2%
Raqamli marketing	12,6	15,8	19,2	24,7	29,8	24,0%

*CAGR - Compound Annual Growth Rate (Yillik o'rtacha o'sish sur'ati)

Manba: OECD, World Bank, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (2024). "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha statistik to'plam".

Bulutli xizmatlardan foydalanish ham yuqori o'sish sur'atini namoyon etdi - yillik 22,1 foiz. 2020-yilda atigi 8,9 foizdan 2024-yilda 19,8 foizga o'sish, garchi mutlaq raqam past bo'lsa ham, bu sohaning istiqbolini ko'rsatadi. Pandemiya davrida masofaviy ishlash zarurati, hujjatlarni bulutda saqlash va jamoa bilan hamkorlik qilish ehtiyoji bu texnologiyalarni

mashhur qildi. Google Drive, Dropbox, OneDrive va mahalliy UzCloud kabi xizmatlar kichik biznes uchun ma'lumotlarni xavfsiz saqlash va istalgan joydan kirish imkoniyatini taqdim etdi.

CRM tizimlaridan foydalanish sekinroq, ammo barqaror o'sish ko'rsatdi yillik 16,0 foiz. 2020-yilda 6,8 foizdan 2024-yilda 12,3 foizga o'sish kichik biznesning mijozlar bilan munosabatlarni tizimlashtirish zaruratini his qila boshlaganini anglatadi. AmoCRM, Bitrix24, HubSpot kabi tizimlarning tarqalishi mijozlar ma'lumotlarini saqlash, sotuvlarni kuzatish va marketing kompaniyalarini boshqarish ahamiyatini oshirdi. Biroq, bu sohada hali ham katta potensial mavjud.

O'zbekiston kichik biznes sektorining turli sohalar kesimida raqamli transformatsiya jarayoni bir xil sur'atda rivojlanmaydi. Har bir sohaning o'ziga xos xususiyatlari, mijozlar talabi, texnik imkoniyatlar va an'anaviy biznes yuritish usullari raqamlashtirish tezligi va chuqurligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda (3-jadval).

IT xizmatlar sohasi mutlaq lider bo'lib, hozirda 89,7 foiz raqamlashtirish darajasiga ega. Bu natija tabiiy hisoblanadi, chunki IT kompaniyalar o'z faoliyati tabiati bo'yicha raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq. Dasturiy ta'minot ishlab chiqish, veb-dizayn, raqamli marketing xizmatlari ko'rsatuvchi kompaniyalar deyarli to'liq raqamlashgan. 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 95,3 foizga, 2030-yilda esa 98,9 foizga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu sohada investitsiya ehtiyoji nisbatan kam 156,4 million dollar, chunki asosiy infratuzilma allaqachon mavjud. Qolgan kichik bo'shliq asosan yangi texnologiyalarni o'zlashtirish va xodimlarni qayta tayyorlash bilan bog'liq.

3-jadval

Soha bo'yicha raqamli transformatsiya darajasi va prognozlar

Soha	Hozirgi raqamlashtirish (%)	2025 prognoz (%)	2030 prognoz (%)	Investitsiya ehtiyoji (mln\$)
Chakana savdo	72,3	84,7	94,2	245,8
IT xizmatlar	89,7	95,3	98,9	156,4
Oziq-ovqat xizmatlari	54,8	69,2	82,6	187,3
Professional xizmatlar	67,8	79,4	89,1	134,7
Transport/logistika	47,2	62,8	78	

Manba: OECD, World Bank, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (2024). "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha statistik to'plam".

Chakana savdo ikkinchi o'rinni egallaydi 72,3 foiz raqamlashtirish darajasi bilan. Bu soha pandemiya davrida eng katta siljishni boshdan kechirdi. Onlayn do'konlar, e-tijorat platformalari, raqamli to'lov tizimlari va mijozlar bilan raqamli aloqa keng tarqaldi. Oziq-ovqat do'konlari, kiyim-kechak, maishiy texnika sotuvchilari faol ravishda Telegram botlar, Instagram orqali savdo va yetkazib berish xizmatlarini joriy etdilar. 2025-yilga kelib 84,7 foiz, 2030-yilda 94,2 foiz darajaga yetish prognoz qilinmoqda. 245,8 million dollarlik investitsiya ehtiyoji asosan logistik tizimlarni modernizatsiya qilish, omborxonalarni avtomatlashtirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish tizimlarini yaxshilash bilan bog'liq.

Professional xizmatlar sohasida 67,8 foizlik raqamlashtirish darajasi kuzatilmoqda. Yuridik xizmatlar, buxgalteriya, konsalting, ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi kichik kompaniyalar faol ravishda bulutli texnologiyalar, video konferensiya, onlayn hujjatlar bilan ishlash va mijozlar bilan raqamli aloqa vositalaridan foydalanmoqda. COVID-19 davrida masofaviy maslahat berish, onlayn o'qitish va virtual uchrashuvlar standart amaliyotga aylandi. 2025-yilga kelib 79,4 foiz, 2030-yilda 89,1 foiz darajaga erishish kutilmoqda. 134,7 million dollarlik investitsiya asosan zamonaviy dasturiy ta'minot, professional platforma va xodimlarni qayta tayyorlash uchun zarur.

Transport va logistika sohasi 47,2 foizlik ko'rsatkichga ega. Yuk tashish, taksi xizmatlari, kuryer xizmatlari faol ravishda GPS navigatsiya, onlayn buyurtma qabul qilish, raqamli to'lovlar va mijozlarni kuzatish tizimlaridan foydalanmoqda. Yandex Taxi, MyTaxi kabi platformalar bu sohaning raqamlashuvini tezlashtirdi. 2030-yilga kelib 78,5 foiz darajaga yetish kutilmoqda, bu avtonomli transport texnologiyalari va aqlli logistik tizimlarning joriy etilishi bilan bog'liq.

Sog'liqni saqlash kichik biznes sektori 38,9 foiz raqamlashtirish darajasiga ega. Xususiy klinikalar, stomatologiya, diagnostika markazlari elektron kartalar, onlayn yozilish tizimlari, telemeditsina va raqamli tibbiy asboblardan foydalanmoqda. Pandemiya davrida masofaviy konsultatsiya va onlayn monitoring tizimlari keng tarqaldi. 2030-yilga kelib 73,6 foiz darajaga erishish prognoz qilinmoqda. 420,8 million dollarlik yuqori investitsiya ehtiyoji zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar, dasturiy ta'minot va xodimlarni qayta tayyorlash bilan bog'liq.

Qishloq xo'jaligi eng past raqamlashtirish darajasiga ega 29,4 foiz. Bu soha an'anaviy xususiyatga ega bo'lib, texnologik yangiliklar sekin qabul qilinadi. Biroq, aqlli fermerlik, dronlar, IoT sensorlar, ob-havo ma'lumotlari tahlili va onlayn savdo platformalari asta-sekin kirib kelmoqda. 2030-yilga kelib 58,7 foiz darajaga yetish kutilmoqda, bu nisbatan sekin o'sish hisoblanadi. 380,5 million dollarlik investitsiya asosan zamonaviy qishloq xo'jaligi texnologiyalari va fermerlarni o'qitish dasturlari uchun zarur.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari asosida O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning raqamli rivojlanishini tezlashtirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Aholi o'rtasida raqamli savodxonlikni oshirish lozim. Buning uchun kichik biznes uchun maxsus raqamli savodxonlik dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur. Bu dasturlar asosiy kompyuter ko'nikmalaridan tortib, e-tijorat platformalarida ishlash, raqamli marketing va mijozlar bilan raqamli aloqa o'rnatishgacha bo'lgan barcha yo'nalishlarni qamrab olishi kerak. Viloyat va tuman darajasida o'quv markazlari tashkil etish, onlayn kurslar yaratish va mentorlik dasturlarini joriy etish tavsiya etiladi.

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada kengaytirish va raqamli transformatsiya uchun kichik biznesga imtiyozli kreditlar, grantlar va subsidiyalarni berish tizimini yo'lga qoyish kerak. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun davlat kafolatli kreditlar, soliq imtiyozlari va leasing dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Startup ekotizimini rivojlantirish uchun ventur kapital fondlari va angel investorlar tarmog'ini kengaytirish zarur.

Infratuzilmani yaxshilash maqsadida qishloq joylarida internet tarmog'ining sifatini oshirish, 5G texnologiyasini joriy etish va raqamli aloqa xizmatlarini arzonlashtirish muhim vazifalar hisoblanadi. Shuningdek, ma'lumotlar markazlarini rivojlantirish, bulutli xizmatlar infratuzilmasini kuchaytirish va kiberxavfsizlik tizimlarini mustahkamlash zarur.

Ta'lim va konsalting xizmatlarini rivojlantirish orqali kichik biznes uchun raqamli texnologiyalar bo'yicha bepul konsalting xizmatlarini yo'lga qoyish, tarqatish va muvaffaqiyatli tajribalarni ommalashtirish kerak. Professional sertifikatlash dasturlari ishlab chiqish va raqamli ko'nikmalar bo'yicha milliy standartlar yaratish tavsiya etiladi.

Raqamli platformalar va mahalliy e-tijorat platformalarini rivojlantirishga yordam berish, kichik biznes mahsulotlarini targ'ib qilish uchun maxsus bo'limlar yaratish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Xalqaro platformalarga kirish uchun yordam berish va mahsulot sifatini xalqaro standartlarga moslash dasturlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Abdullayev Y.N., Jurayev N.T. (2021). "O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot: imkoniyatlar va muammolar". *Iqtisodiyot va moliya*, №5, 23-31 b.

Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). "The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies". W. W. Norton & Company, New York, 320 p.

Farmon (2020). O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5-oktabrdagi PF-6079-sonli "“Raqamli O'zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”. Toshkent.

ILO (2023). International Labour Organization. "Small and medium-sized enterprises and decent and productive employment creation". Geneva.

McKinsey (2023). Global Institute. "Digital America: A tale of the haves and have-mores". McKinsey & Company.

Parker, G., Van Alstyne, M., & Choudary, S. (2016). "Platform Revolution: How Networked Markets Are Transforming the Economy and How to Make Them Work for You". W. W. Norton & Company, New York, 352 p.

Rahmonova M.A. (2021). "Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik va o'rta biznesning roli". Zamonaviy iqtisodiyot, №4, 67-74 b.

Rahmonova M.A. (2021). Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik va o'rta biznesning roli va ahamiyati. // Zamonaviy iqtisodiyot, №4(76), 67-74 b.

World Bank (2023). World Bank Group. "Digital Dividends: World Development Report 2016". Washington DC:

Xolmatov B.R. (2020). Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini raqamlashtirish masalalari. // Biznes-ekspert, №7(98), 45-52 b.

Абдрахманова Г.И., и др. (2020). Цифровая экономика: 2021: краткий статистический сборник. НИУ «Высшая школа экономики», Москва, 124 с.

НП Голубецкая (2020). Влияние цифровых технологий на развитие малого предпринимательства в России. // Вестник экономики, №3(47), с. 78-84.

Петров А.П., Иванов С.Н. (2019). Малый бизнес в условиях цифровизации экономики: проблемы и перспективы. // Экономические науки, №12(181), с. 45-52.